

XUSH KELDING, FASL19 BAHOR...

*Yana bahor keldi, yana olamda,
Ajib bir go`zallik, ajib bir bayot.
Men seni qutlayman shu ulug` damda,
Ulug` yelkadoshim, muzaffar hayot.*

Sakkizinch jannat deya ta'rif etiladigan ona yurtimizda bahor nafasi kezib yuribdi.

Qorli-qirovli kunlar ortda qoldi. Ko'ngillar ko'klam sururidan yayramoqda. Ona zamin uzra bahoriy nasim esa boshladi. Yurtimiz tinch. Osmonimiz musaffo. Bir dunyo orzular bilan ertani kutib, kelajakka ishonib, to'yu-to-moshalar qilish, yangi uy-joylar solish, Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish niyatida yashayotgan xalqimiz «Xush kelibsan o'l kamizga, bahor, qadaming qutlug' bo'lsin! Yurtimizdag'i tinchlik-omonlikka ko'z tegmasin!» deb fasllar kelinchagiga peshvoz chiqmoqda...


Ezgulik, muhabbat, xayr-saxovat, muruvvat, shafqat va shafoat, yangilanish va yasharish ayyomi qalblarga surur, olam-olam quvonch va yangi-yangi orzu-havaslar baxsh etadi. Ana shunday faraxbaxsh kunlarning debochasi Namangan shahridagi Prezident maktabida jo'shqin tantanalar-u, orombaxsh sayl bilan boshlandi. Maktab hovlisining har tomonida

TAHIR HAY'ATI:

Bosh muharrir:
Abdurasul Pirnazarov
Muharrirlar:
Dilfuza Kuldasheva
Xurshida Saidno'monova
Dizayner:
Abduvohid Isaqov

Jurnal oyda bir marotaba chop etiladi.
Adadi: 100

Manzil: Namangan shahar,
Islam Karimov ko'chasi



bayram shukuhi aks etdi: bir tomonda doshqozonda sumalak, yana bir tomonda varraklar parvozi, bir yoqqa qarasangiz jo'shqin o'yin-kulgilar, zamonaviy sport maydonida esa qadimiy arqon tortish musobaqasi.

Maktabning shinam oshxonasida bahoriy taomlar, to'kinlik timsoli bo'lmish noz-u ne'matlar bilan to'lgan bahoriy dasturxon atrofida qo'r to'kib o'tirgan otaxonlar yana bir bahor bilan yuzlashganlari ga shukrona keltirib, yurt obodligi, xalq farovonligidan so'z ochdilar. Tabarruk qo'llarini duoga ochib butun xalqimizga tinchlik, xotirjamlik, yoshlarmizga baxt-u iqbol tiladilar.

Xalqimiz barcha orzu-havaslari, hayotining mazmunini farzandlarida ko'radi. Ertamizning egalari – maktab o'quvchilarining sho'x-shodon kulgilari, ona Vatanni, ko'klamni, baxtiyor bolalikni madh etuvchi jarangdor kuy-ko'shiqlari, jozibador raqslari barchaga zavq-shavq ulashdi.

MAMLAKATIMIZDAGIDEK BOY TARIX, BOBLARIMIZDEK BUYUK ALLOMALAR HECH QAYERDA YO'Q!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

XXI asr bo'sag'asida O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan xalqimiz o'z taqdirini, o'z kelajagini o'z qo'li bilan yaratishni boshladi. Mustaqillik sharofati bilan Vatanimiz tarixini o'rganish, uni o'qitishga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarining faol taraqqiyoti davrida tarix fanini, xususan, Vatan tarixini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z tarixini biladigan hamda undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmaydi. Biz yetishib chiqayotgan yosh avlodlarimizni haqqoniy tariximiz, xalqimizning asriy qadriyatları va buyuk ajdodlarimizning ma'nnaviy merosi bilan qurollantirishimiz zarur.

Vatan tarixini o'rganish esa bizga o'zligimizning tarixiy ildizlarini chuqur anglab yetishga hamda milliy g'ururimizni yuksaltiradigan yangi yo'naliishlarni belgilashda madakor bo'ladi.

Bugungi kunda yurtimizda hozirgi zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o'rganish va o'zlashtirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Maktabimizda STEAM fanlari qatori qolgan dars mashg'ulotlari ham zamonaviy axborot texnologiyalari hamda innovatsion ta'lif metodlaridan foydalanilgan holda yuqori malakali ustozlar tomonidan olib borilmoqda.

Xususan, fevral oyi davomida tarix, Vatan tuyg'usi va Milliy istiqlol g'oyasi fan ustozlari Tojiboyev Jahongir, Sadriddinov Abrorjon va Erkinov Doniyorbeklar tomonidan ilgor pedagogik texnologiyalar asosida ochiq dars mashg'ulotlari tashkil etildi.

12-fevral kuni 7-“Blue” sinfida “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'nnaviyat asoslari” fanidan o'qituvchi Erkinov Doniyorbek tomonidan “Ko'zga ko'rinnas xatarlar” mavzusida ochiq dars tashkillashtirildi. Dars mashg'uloti mobaynida “Bilimdonlar qasri”, “Kim tezkor?”, “Tilsim” kabi qiziqarli pedagogik o'yinlardan foydalanildi. Dars jarayonida o'quvchilar o'zlarining shaxsiy fikrlari orqali bahs-munozaraga ham kirishdilar. O'quvchilar dars davomida hozirgi kunda dunyo hamjamiyatiga xavf solib turgan xatarlar haqida batapsil ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Ushbu ochiq dars yordamida o'quvchilar ana shunday yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetlarini yanada mustahkamlashga erishdilar. Dars mashg'ulotini kuzatish uchun taklif etilgan ustozlar dars jarayoni turli debatlar hamda munozaralarga boy o'tganligini alohida ta'kidlab o'tishdi. 13-fevral kuni 10-“Blue” sinfida Jahon

tarixi fanidan o'z ichida ko'plab innovatsion usulblarni jamlagan va integratsion ko'rinishda tashkillashtirilgan “Ikkinchi jahon urushi” nomli ochiq dars bo'lib o'tdi. Dars davomida tarix fani o'qituvchisi Jahongir Tojiboyev dars jarayoni kuzatuvchilari doirasini hisobga olgan holda mashg'ulotni to'liq ingliz tilida muloqot olib bordi. O'qituvchi slayd orqali II jahon urushi haqida tarixiy ma'lumotlarni xronologik va tadrijiy ravishda o'quvchilarga tushuntirib berdi. O'quvchilarni zerikib qolmasliklarini inobatga olgan holda o'qituvchi tomonidan aynan II jahon urushi bilan bog'liq hazilomuz hikoyalar aytildi va turli xil topishmoqlar berildi.

Bu, o'z navbatida, o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqish-

cultur




larini yanada kuchaytirdi.

Shuningdek, o'quvchilarning mavzu borasidagi bilimlarni mustahkamlash maqsadida “Choose the odd word out”, “Find your partners with the help of pigeons” kabi nomlar ostida qiziqarli yangi pedagogik usullardan foydalanildi va internet tizimi yordamida Kahoot.com veb-sayti orqali 3 ta guruhga bo'lingan holda testlar yechildi



va bu jarayonlar o'quvchilarning kompetentligini yanada oshirdi. Umuman olganda, darsning ingliz tilida olib borilganligi o'quvchilarni nafaqat tarix fanidan bilimlarini os-hirishga, qolaversa, II jahon urushi voqealarini ingliz tilida bayon qilish orqali til imkoniyatlarini ham yanada yuksaltishlariga xizmat qildi.

A. Sadriddinov.
Tarix fani o'qituvchisi



NAVOIYXONLIK.



Inson qalbining eng nekbin tuyg`ularini, quvonch-u qayg`usini, hayat va haqiqat mazmunini Alisher Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Insoniy ishq-muhabbatni, mehr-u vafo, iffat-u himmatni yonib, hassoslik bilan kuylagan Navoiyning go`zal satrlarini o`qiganda buyuk va oljanob qalb sadolarni sezib turamiz. Bu ko`ngil tug`yonlari, mana, oradan besh yarim asrdan ziyod vaqt o`tsa hamki, millionlab insonlarni hayajonga solib kelmoqda.

Fevralning iliq nafasi bahor ga - yangilanishga oz fursat qolganidan darak berayotgan ayni kunlarda Alisher Navoiy dahosining buyuk zakosi she`riyat osmonining quyoshi yang`lig` ko`ngillarga, oshiq qalblarga iliqlik, yangilanish baxsh etmoqda. Buyuk timsolning ulug` tavallud sanasi munosabati bilan Namangan shahridagi Prezident maktabi jamoasi

ham nazm va navo ixlosmandlariga mumtoz badiyat bo`stonidan betakror tuhfalar hadya etdilar.

O`zbek tili va adabiyoiti o`qituvchilari va maktab o`quvchilari bilan tashkil etilgan badiiy kompozitsion chiqishlar mакtab jamoasi va mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Adabiy kecha ishtirokchilar va tomoshabilarga Navoiyga yaqin borish – bu haqqa, haqiqatga, ishqqa, ko`ngingga, vatanga yaqin borish-

dek rohatbaxsh ekanligini, Navoiyni angash – dunyoga kelishdan bosh murod neligini anglashdek mazmundor ekanligini ifoda etishni maqsad etdi. Buyuk shoir g`azallaridan namunalar, buyuk ijodning buyuk cho`qqisi "Xamsa" asosida tayyorangan sahna asarlari, Navoiy shaxsini tarannum etuvchi she`riy mushoyiralar va ohanrabodek o`ziga tor-

tuvchi sohir navolar kechanning mazmunini aks ettirdi. O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a`zosi, shoir Nosir Abbosning Navoiy ijodi va siymosi haqidagi sof va samimi izhorlari ishtirokchilarga she`r ishqini, ijod dardini beixtiyor his ettira oldi. She`rga to`kilgan tuyg`ularni muallifidan eshitish zavqi o`quvchi yoshlarda

Navoiyni o`qir bo`lsam, har so`z navolanib kelgay,
Navokim, qat-baqat hikmat, sehri safolanib kelgay
...Nosiro o`zni xurram tut, odamlikni mukarram tut,
Faqat mehringni sen jam tut, u nur siymolanib kelgay.

Nosir Abbos

ham katta taassurot qoldirdi.





YUKSAK MARRALAR SARI

HIPPO – Xalqaro ingliz tili fani olimpiadasi 1-sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan barcha davlat va nodavlat maktab o'quvchilari uchun, shuningdek, akademik litsey va kollejlarning 1-, 2-kurs o'quvchilari ham ishtirok etish imkoniyatiga ega. HIPPO – Xalqaro ingliz tili fani olimpiadasi, 2012-yil Angliya Davlatining "Pearson Education" tashkiloti ko'magi ostida, Italiya davlatining "Global HIPPO Association" uyushmasi tasarrufida tashkil topgan bo'lib, hozirgi kunda dun-yoning 40 dan ortiq (ingliz tili asosiy til hisoblanmagan) davatlari 40 000 (qirq ming) atrofida ishtirokchilar qatnashib kelmoqda. 2018-yildan buyon Angliya davlatining Gatehouse Awards tashkiloti bilan hamkorlikda ish faoliyatini davom ettirmoqda va har bir ishtirokchi HIPPO olimpiadasida Xalqaro standart darajasiga ega bo'lgan, Buyuk Britaniya IESOL testlarini topshiradi. Ushbu olimpiadada ishtirokchilar jami 4 ta qobiliyat (so'zlashish, o'qish, yozish va tinglab tushunish) bo'yicha bellashadi. Ilk bosqichda, o'qish va tinglab tushunish, yarim final bosqichida esa yozish va o'qish, final bosqichida barcha ko'nikmalar bo'yicha imtihon topshirishadi. Ushbu olimpiada 3 bosqichdan iborat bo'lib, ilk saralash O'zbekiston hududlarida 7-8-fevral kunlari va yarim final bosqichi Toshkent shahrida 13-14-mart kunlari, yakuniy bosqich esa barcha davlatlar uchun Italiya davlatining Venetsiya shahrida 15-17-may kunlari bo'lib o'tadi.



Maktabimiz o'quvchilari ham bu yilgi HIPPO – Xalqaro ingliz tili fani olimpiadasining hududiy bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etishdi. Olimpiada qatnashchilari orasida o'quvchilarimizdan Asqaraliyev Muhammadali, Xudoyerberdiyeva Gulshoda (5-blue), Tojimirzayeva Adiba (6-blue), Nosiraliyev To'lqin, Abdubannojeva Nigina (6-green), Muhammedova Rahbarxon (7-blue), Akramov Javohir, Xaydarova Go'zalxon (8-blue), Abubakirov Nodirbek (8-green), Mansurov Zuhriddin (9-green), Xoldaraliyeva Muattar, Abdubayev Rahmatillo, Abduboqiyev Dovudxon, Murodxo'jayev Saidbek (10-blue), Erkinov Doniyor (10-green)lar muvofaqqiyatli ishtirok etishib, olimpiadaning raspublika

bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishdi. Bu yutuqlar maktabimiz jamoasi uchun katta g'alabalarga yo'l deya e'tirof etildi. Biz maktabimiz va yurtimiz sharafini ulug`laydigan, ilm mas'uliyatini yelkaga olgan bilimdonlarga zafarlar tilaymiz!



“OCHIQ OSMON



Qariyib bir oy davomida “Mumtoz adabiyot oyligi” munosabati bilan goh adabiy-ma’rifiy, goh tarixiy merosimizning buyuk sahifalarini varaqlab, xalqimizning mislsiz madaniy va ma’naviy olamiga safar qildik. Namangan shahridagi Prezident maktabi jamoasi bu gal Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi munosabati bilan buyuk ajdodimiz ulg`aygan, o’z asarlarida bot-bot tilga olgan, buyuk ijodida sog`inch ila xotirlagan ota yurti, bugun esa muhtaram yurtboshimiz tashabbuslari bilan “Ochiq osmon ostida muzey” deya e’tirof etilib, qayta o’rganilayotgan Axsikent – ko’hna shahar xarobalariga tashrif buyurdilar.

Muzey bo’ylab sayohat qilgan o’quvchilar va ustozlar bu yerda turar joy, ishlab chiqarish, yer osti suv yo’li-vodoprovod va 1,5 ming yillik madaniy qatlamlar o’z ifodasini topganini guvohi bo’ldilar.

Qadimshunos olimlar tomonidan «Farg’ona Afrosiyobi», deya ta’rif berilgan ko’hna shahar xarobalari, ayniqsa, o’quvchi yoshlar hamda xorijlik ustozlarda katta qiziqish uyg’otdi. Tarix va o’zbek adabiyoti ustozlari ilmiy va badiiy adabiyotlarga asosan ma’lumotlar berib bordilar.

O’rta Osiyo tarixiga bag’ishlangan qator ilmiy manbalarda moziy Axsikent nafaqat Farg’ona vodiysi, balki butun Turkiston, jahon tarixida o’ziga xos o’ringa ega bo’lgan shaharlardan ekani xususida ham ma’lumotlar berib o’tildi.

Tarix zarvaraqlari Namangan buyuk o’tmish sahifalarida o’ziga xos o’rin tutganini isbot etadi. Axsikent yurtimizdan yetishib chiqqan, diniy va dunyoviy ilmlar sohasida shuhrat qozongan ko’plab allomalarning kindik qoni to’kilgan, muqaddas zamindir. Zahiriddin Muhammad Bobur siymmosining o’ziyoq biz avlodlarga mislsiz iftixon tuhfa eta oladi. Boburning otasi temuriy hukmdor Umarshayx mirzo Axsikentni o’z davlatining poytaxtiga aylantirgan edi. Umarshayx mirzoning uch



nafar o’g’li bo’lib, katta o’g’il Boburga Andijon hokimligini, o’rtancha o’g’il Jahongirga Aksi hokimligini, kenja o’g’il Nosir mirzoga esa Koson hokimligini bergen edi.

Bobur o’zining «Boburnoma» asarida Aksi haqida juda ko’p o’rinlarda to’xtalib o’tgan. Umarshayx mirzo Axsini poytaxt qilganligini yozadi: «Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi. Qovuni yaxshi bo’lur. Bir nav’ qovundurkim, «Mir Temuriy» derlar, andoq qovun ma’lum emaskim olamda bo’lg’ay... Samarqandni olg’on mahalda Axsidin, Buxorodin qovun kelturub bir majlisda kesturdum, Aksi



OSTIDA MUZEY”

qovunining hech nisbati yo‘q erdi».

Yoki «...Sayhun suyining shimoli tarafidagi qasabalar: bir Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitirlar. Bu kabi sodda va muxtasar ma'lumotlarning o'ziyoq bizga bundan bir necha asrlar muqaddam bu yerda katta madaniy va ma'naviy hayat yuksalganini isbot etadi. Ochiq osmon ostidagi ko'hna shahar xarobalarini kuzatar ekanmiz, bu yerda buyuk tarix yastanib yotgandek, ulug' ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburning ruhi kezib yurgandek, ona yurt tuprog'i biz farzandlariga o'z kechmishini hikoya qilib bergandek tuyulib ketdi. Sayohat chog'ida qo'limizdag'i shoh va shoirning sof va samimiyy "Boburnoma"si, hassos devoniga qayta-qayta murojaat qilib, shoh asarlari-yu, shohbaytlarini yod etdik, nazdimizda, bu bilan buyuklar ruhiga ehtirom etib, ularni shod etdik.

**Xurshida Saidno` monova
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi**



Ahsikent city was founded in the 4th century B.C. and was called Fergana until half of the 9th century A.D. In medieval texts. From the second half of the 9th century Akhsikath, one of the middle ages was i...



SHOHLIGI SHOIRLIGIDAN, SHOIRLIGI SHOHLIGIDAN ULUG'

***Har vaqtki, ko`rgasen mening so`zumni,
So`zumni o`qib sog`inasen o`zumni.***

Namangan shahridagi Prezident maktabida Mumtoz adabiyot oyligi va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 537 yilligi munosabati bilan o`tkazilayotgan loyihalarning navbatdagi bosqichi sifatida ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi Saidno`monova Xurshida Vladimirovnaning 5-blue sinfida "Bobur ruboiyları" mavzusida ochiq dars mashg`uloti o`tkazildi.

Temuriy sultonlardan biri ulug` shoir va davlat arbobi, yirik sarkarda va benazir tarixnavis Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi davr-u zamonalr o`tgani sayin adabiyot ixlosmandlar ini qiziqtirib kelmoqda va bundan keyin ham shunday bo`lmog`i muqarrar. Shoirligi shohligidan, shohligi shoirligidan ulug` hazrati Boburning qisqa bo`lsa-da, nechog`li ziddiyat va qarama-qarshiliklar, matonat va jasoratlarga boy, sertahlika v sermazmun hayot yo`lini bosib o`tganini ysoh qalblarga yetkazishda, o`quvchi shuurida ajodidlarga ehtirom uyg`otishda bu kabi darslar o`z samarasini berishi shubhasiz. Darsdan ko`zlangan maqsad ham aynan shundan iborat bo`ldi.

Mavzuni yoritish va o`rgatishda o`quvchilarning yoshi, dunyoqarashini hisobga olgan holda o`yinlar, sahna ko`rinishlari va kayfiyat daqiqalari tashkil etildi. Bobur haqida she`rlar, shoir ijodidan namunalar, miniatura san`atida ishlangan rasmlarga ruboiylar bilan berilgan sharhlar, turli pedagogik texnologiyalar darsning tarkibiy



qismlari sifatida mavzuni yoritishga xizmat qildi.

Yurtboshimiz nutqlaridan birida : "Prezident maktabi bolalari mening oltin zahiralarimdir", - deya e'tirof etgan edilar. Xazinaning qimmatba-ho injulari sifatida sind o`quvchilari "Ko`hinur", "Lojuvard", "Zabarjad" deb nomlandi.

Ko`rgazmalar orasida taqdim etilgan lolalar, qovun va kabutar bilan bog`liq usullar o`quvchilarda katta taassurot qoldirdi. Qovun va kabutar obrazlari bevosita Bobur yoshligi bilan bog`langan rivoyatlarga ulandi. Rivoyatlar o`quvchilar tilidan bayon etildi. Zahiriddin Muhammad Bobur



taxtga o`tirganda ayni 5-sinf o`quvchilar yoshida bo`lgani, uning shu yoshdagagi fazilatlari haqida o`qituvchi o`z fikrlarini va izhorlarini bayon etdi.

Dars mashg`uloti yakunlanar ekan, o`qituvchi bolalarga hazrati Boburga munosib avlod bo`lishlarini, uni o`rganishdan , his etishdan to`xtamasliklarini uqtirdi va shoirning quyidagi misralarini aynan sizlar uchun bitilgandek, deya o`qib eshittirdi:

Dunyoga kelmishdir hazrati BOBUR,
Daholar ham qarz-u ham farz yaralgay.
Sherlarning zuryodi faqat sher bo`lur,
Yo`lbars avlodidan yo`lbars yaralgay.

**Oydina Shermatova
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi**



Mumtoz adabiyot va san`at shu qadar sehrli va fusunkorki, uning ohangi, qiyofasi buyukligini ko`rsatib turadi. Uni goh so`zsiz ham anglash mumkin. Xorijlik mutaxassislarning adabiy kechaga qiziqish bilan munosabat bildirganlarining o`ziyoq buning yorqin isbotidir. Aytish mumkinki, dunyoning turli hududi vakili bo`lishiga qaramay, ustozlarimiz o`zbek adabiyoti va san`atiga katta hurmat bilan qarganlari, millatimiz ma`naviy merosiga ehtirom bildirganlari tafsinga sazovordir. Biz buni san`atga oshuftalik, bag`rikenglik va olijanoblikning ifodasi deya baholadik. Boisi hayotimizda goh so`zni tushunib ham uning salobati va sehrini tan olmaydigan insonlar, afsuski, uchrab turadi.

Alisher Navoiy bugunimizdan besh yil ortda emas, bu ijod, bu siymo – bizdan besh yil oldinda, balki besh ming yil... Biz u tomon odimlar ekanmiz, o`zni, o`zlikni va o`zbekni anglab boraveramiz. Qayta-qayta unga intilaveramiz.

Qayda Nafosat maktabi, nedur go`zallar matlabi? Bormi zamonda Gul kabibi qizlar Navoiydan keyin.

**Jshq do`konin bunyod qilmish muhtasham,
Har g`ozali – gulgun rasta Navoiy.**

**To Navoiy bor muhabbat dildadir,
So`lmagay hargiz kongil bo`stonimiz.**

**Tirik farhodlarni tanimak bo`lib,
Oliy yurtimizga qilsangiz safar,
Bu yerda har bitta taroshlangan tosh,
Yuksak umidlardan beradi xabar.**

**Hikmatga yo`g`rilgan unda har bisot,
Qaroqqa joylaymiz bari-barini...**

**Sirlarini ochar asta Navoiy,
Goh hazing, goh masrur sasda Navoiy.**



TOP-5

ZAMONAVIY TA'LIMNING O`ZGACHA MEZONI

Shiddat bilan rivojlanishda davom etayotgan bugungi zamon hammamizdan intellektual sa-lohiyatni, chuqur zakovatni, zamonaviy bilimni talab qilmoqda. Xo'sh, bugungi zamonaviy maktab o'quvchisi qanday bo'lmog'i kerak? Keljakda yetuk mutaxassis bo'laman de-gan tolibi ilm barcha fanlarni mukammal o'rghanishi va o'rganganlarini namoyish qila bilishi lozim. Albatta, bu yo'lda ularga malakali ustozlarning bergen saboqlari mustahkam poy-devor vazifasini o'tamog'i darkor. Shu bilan birga, o'quv jarayonida olinadigan turli nazorat sinovlari ham o'quvchini bilim cho'qqisi tomon yana-da ildam qadam tashlashga, ma'rifat olamida yanada toblanishga chorlaydi.

Bizning maktabimizda ham o'quvchilarning STEAM fanlar bo'yicha bilimlarini yangicha yondashuv, yangi bir mezon asosida baholash, asosiysi, ularning fanlarni chuqur va mu-kammal o'rghanishlari, ko'nikmalarni esa amalda tatbiq eta olishlarini shakllantirish, o'tgan vaqt davomida oлган bilimlarini, avvo, o'zlariga, so'ng esa, jamaa va oilalariga namoyish eta olishlari uchun yangicha test sinovlari o'tkazildi. Uch kun davomida o'tkazilgan sinov vaqtijo'shqin va raqobat bilan o'tdi. Natijalar esa hayajon bilan kutildi. Fevral natijalari e'lon qilinishini barcha o'quvchilar intiq kutdilar. Sinov natijalariga ko'ra parallel sinflardan eng yuqori ball to`plagan o'quvchilar orasidan "Top - 5" talik aniqlandi va ertalabki saflanishda e'lon qilindi. Kuchli beshtalik ichida nomi va rasmi qayd etilgan o'quvchilar natijalaridan qanchalik quvongan bo'lsalar, boshqalari kelgusi sinov natijalarida o'zlarini beshlik ichida bo'lishlari uchun maqsadni katta oldilar.

Biz esa maktabimizning yangi bilimlar olishga bel bog'layotgan va kuchlilar safiga chog`la-nayotgan o'quvchilariga yuksak marralarni zabit etishlarini tilaymiz!

Olg'a, bilimdonlar!

Presidential school in Namangan

ICT TEST February 2020

TOP GRADE 8 STUDENTS

 Avazbekov Muhammadsodiq	 Mallaboyev Davlatali	 Akramov Javohir	 Hakimov Iskandarbek	 Xaydarova Go'zalxon
-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------

*ASSALOM
BAHOR!*



Ayniqsa, varraklar parvozida o`zgacha bir ma`no-mazmun aks etgandek go`yo. Bolajonlarning ko`kka intilayotgan, maktab osmonini to`ldirib uchayotgan varraklari o`zlarining orzu-intilishlari yanglig` ko`ngillarga surur baxsh etdi. Ularni kuzatib turgan yosh-u qari beixtiyor: "Parvozingiz baland bo`lsin, baxtiyor bolalar" - deb yuboradi. Shu shirin damlarda bahor yoshlik va barkamollik timsoli bo`lib ko`z o`ngingizda gavdalanadi.



Bahor tashrifi munosabati bilan tashkil etilgan sayl xorijlik mutaxassislarimizda ajib taas-surotlar uyg`otdi. Sumalak atrofida niyat qilish, keksalardan duo olish, dasturxon atrofi-dagilarga choy tashishda ularning samimiyl ishtiroki jamoa uchun ham yodda qolarli onlar bo`ldi.

Bahor ko`tarinki ruhda qarshi olish va Navro`z bayramini o`tkazish yosh avlodni tarbiyalash, xalqimiz ijodiyotining eng yaxshi namunalari misolida ular dunyoqarashini shakllantirish, milliy o`zlikni anglash va xalqimiz birdamligida katta ahamiyat kasb etadi.